

## 2022-yil yanvar-may oylari uchun Xorazm viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-may oylariga, Xorazm viloyatida jami 1460,0 mlrd so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 2021-yilning yanvar- may oylariga nisbatan 103,6 %ni tashkil etdi.




### Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.



Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo‘lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo‘yicha bo‘linadi.


**Ma’lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu — o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta’mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Joriy yilning yanvar- may oylarida jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **94,2** mlrd so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilning yanvar- may oylariga nisbatan **95,9 %**ga bajarilgan bo‘lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2021- yilning mos davridagi ko‘rsatkich darajasidan **0,4 %** punktga kamaydi va **6,5 %**ni tashkil etdi.



### Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, %da



**Ma’lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Urganch tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **8,8 %** yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **40,6%** ), Urganch shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **27,2 %** yoki 2021- yilning yanvar- aprel oylariga nisbatan **69,2 %**) va Yangibozor tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **8,7 %**, yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **168,8 %** ) hissasiga to‘g‘ri keldi.

## Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2022- yilning yanvar- may oylariga kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 65,3 %i to'g'ri kelib, 2021- yilning yanvar-aprel oylaridagi ko'rsatkichiga nisbatan 0,72 foizga oshdi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning mos davriga nisbatan 103,5 %ni tashkil etgan holda 952,8 mlrd so'm miqdorida bajarildi.

### Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi %da

**64,5**  
2021-yil  
yanvar-may

**65,3**  
2022-yil  
yanvar-may



*Ma'lumot uchun: joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Urganch shahri (272,2mlrd so'm yoki umumiylajmga nisbatan 95,1 %), Urganch tumani (101,1 mlrd so'm yoki 117,1 %) va Xiva tumaniga (97,6 mlrd so'm yoki 119,3 %) to'g'ri keldi.*

**Qurilish ishlaringin umumi hajmida  
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **90,7** mlrd so'mlik, nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **1369,4** mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **6,2** % va **93,8** %ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar  
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**





**2022- yilning yanvar-aprel oylarida  
hududlar kesimida mulkchilik shakllari  
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk	
		mlrd so'm	ulushi % da	mlrd so'm	ulushi % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>1460,0</b>	<b>90,7</b>	<b>6,2</b>	<b>1369,4</b>	<b>93,8</b>
<b>Urganch sh.</b>	<b>380,7</b>	<b>28,1</b>	<b>1,9</b>	<b>260,1</b>	<b>17,8</b>
<b>Xiva sh.</b>	<b>113,5</b>	<b>6,8</b>	<b>0,5</b>	<b>93,4</b>	<b>6,4</b>
<b>tumanlar:</b>					
<b>Bog'ot</b>	<b>87,0</b>	<b>5,7</b>	<b>0,4</b>	<b>86,9</b>	<b>6,0</b>
<b>Gurlan</b>	<b>77,2</b>	<b>0,0</b>	<b>0,0</b>	<b>80,5</b>	<b>5,5</b>
<b>Qo'shko'pir</b>	<b>76,0</b>	<b>5,7</b>	<b>0,4</b>	<b>83,1</b>	<b>5,7</b>
<b>Urganch</b>	<b>127,9</b>	<b>9,6</b>	<b>0,7</b>	<b>117,2</b>	<b>8,0</b>
<b>Hazorasp</b>	<b>64,0</b>	<b>6,9</b>	<b>0,5</b>	<b>75,0</b>	<b>5,1</b>
<b>Tuproqqal'a</b>	<b>63,0</b>	<b>6,0</b>	<b>0,4</b>	<b>80,1</b>	<b>5,5</b>
<b>Xonqa</b>	<b>110,8</b>	<b>4,4</b>	<b>0,3</b>	<b>113,3</b>	<b>7,8</b>
<b>Xiva</b>	<b>115,8</b>	<b>0,0</b>	<b>0,0</b>	<b>149,6</b>	<b>10,2</b>
<b>Shovot</b>	<b>96,9</b>	<b>7,3</b>	<b>0,5</b>	<b>102,3</b>	<b>7,0</b>
<b>Yangiariq</b>	<b>71,0</b>	<b>5,0</b>	<b>0,3</b>	<b>58,5</b>	<b>4,0</b>
<b>Yangibozor</b>	<b>76,2</b>	<b>5,2</b>	<b>0,3</b>	<b>69,4</b>	<b>4,8</b>



**Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta qrollantirish ishlari ulushi  
2022- yil yanvar-may oylari**

2022- yil yanvar-may

Bajarilgan qurilish ishlaringin katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringin 75,5 % yoki **1102,4** mlrd so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.


Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **83,9** mlrd so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 7,6 %ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **641,4** mlrd so'mlik ishlar bajarildi yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 58,2 %ni tashkil etdi.

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **377,1** mlrd so'mni yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 34,2 % ni tashkil etdi.

## Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

*ulushi, % da*



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar  
kesimida qurilish ishlari  
2022- yil yanvar-may oylarida**

*mlrd s'om*

	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>1460,0</b>	<b>1028,4</b>	<b>311,3</b>	<b>120,3</b>
<b>Urganch sh.</b>	380,7	251,5	100,6	28,6
<b>Xiva sh.</b>	113,5	76,1	27,5	9,9
<b>tumanlar:</b>				
<b>Bog'ot</b>	87,0	62,5	16,4	8,1
<b>Gurlan</b>	77,2	58,8	4,2	14,2
<b>Qo'shko'pir</b>	76,0	55,5	17,4	3,1
<b>Urganch</b>	127,9	76,9	30,5	20,5
<b>Hazorasp</b>	64,0	53,4	9,3	1,3
<b>Tuproqqa'l'a</b>	63,0	35,4	23,4	4,2
<b>Xonqa</b>	110,8	71,6	31,6	7,6
<b>Xiva</b>	115,8	91,9	18,5	5,4
<b>Shovot</b>	96,9	75,1	8,4	13,4
<b>Yangiariq</b>	71,0	64,1	6,7	0,2
<b>Yangibozor</b>	76,2	55,6	16,8	3,8

2022- yilning yanvar-may oylarida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari





## XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Xorazm viloyati  
statistika boshqarmasi

Investitsiya va qurilish statistikasi  
bo‘limi

Aloqa telefoni: (62)224-65-22